

YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARI -- PANDNOMA ASAR SIFATIDA

To'qliyeva Matluba Boqiyevna

Xalqaro innovatsion universiteti Pedagogika

kafedراسi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: *Sharq ma'naviy merosida ilm va odob masalasi doimo ustuvor mavqega ega bo'lgan bo'lishiga qaramay, tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida jamiyatning ehtiyoj va talablariga mos ravishda yangi ma'rifiy asarlar yaratishga zarurat tug'ilib kelgan. Ana shunday ehtiyoj, ayniqsa davlat boshqaruvi, ijtimoiy tartib, axloqiy me'yorlar va inson kamoloti masalalarini mukammal yoritish talab qilingan davrda yuzaga kelgan bo'lib, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari ham ana shu zaruratning mahsuli sifatida yaratilgan buyuk pandnoma hisoblanadi.*

Kalit bso'zlar: *donishmand, zakovat, axloq, odob, ta'lim, tarbiya.*

АННОТАЦИЯ: *Несмотря на то, что вопрос науки и морали всегда занимал приоритетное место в духовном наследии Востока, на разных этапах исторического развития возникала потребность в создании новых воспитательных произведений в соответствии с потребностями и требованиями общества. Такая потребность возникла, особенно в период, когда необходимо было всесторонне осветить вопросы государственного управления, общественного порядка, моральных норм и совершенствования человека, и произведение Юсуфа Хос Хаджиба «Кутадгу билинг» является великим шедевром, созданным как продукт этой потребности.*

Ключевые слова: *мудреци, интеллект, мораль, порядочность, образование, воспитание.*

Abstract: *Despite the fact that the issue of science and morality has always had a priority position in the spiritual heritage of the East, at different stages of historical development there has been a need to create new educational works in accordance with the needs and requirements of society. Such a need arose, especially in the period when it was necessary to fully illuminate the issues of state administration, social order, moral standards and human perfection, and Yusuf Khos Hajib's work "Kutadgu bilig" is a great masterpiece created as a product of this need.*

Keywords: *wise man, intelligence, morality, decency, education, upbringing.*

Yusuf Xos Hojibning hayoti, ilmiy-ma'rifiy merosi va uning buyuk asari bo'lgan «Qutadg'u bilig» haqidagi ma'lumotlar, avvalo, aynan o'sha asarning o'zida keltirilgan tarixiy ishoralar orqali bizgacha yetib kelgan. Manbalarning guvohlik berishicha, u Balasog'un shahrida tavallud topgan bo'lib, o'zining mashhur asarini ellik yoshdan oshgan pallalarida yaratgan. «Qutadg'u bilig» hijriy 462 yilda (milodiy 1069–1070) yakunlangani, mutafakkir uni taxminan o'n sakkiz

oy davomida - 61 hijriy yilning avvalidan 462 yilning o'rtalarigacha yozgani ta'kidlanadi. Shundan kelib chiqib, olimning tug'ilgan sanasi taxminan 410 (milodiy 1019) yillar atrofida deb ko'rsatiladi.

Mazkur asar o'zining hajmi jihatidan ham, mazmun qamrovi jihatidan ham yuksak ilmiy qiymatga ega bo'lib, 6500 bayt yoki 13 ming misradan iborat kattagina doston hisoblanadi. Asar yakunlangach, Yusuf Xos Hojib uni Qoraxoniylar sulolasi hukmdori Tavg'achxon (manbalarda Tavg'och Ulug' Bug'ra Qoraxon yoki Abo al-Hasan ibn Sulaymon Arslon Qoraxon sifatida tilga olinadi) huzuriga taqdim etadi. Doston hukmdor tomonidan yuqori baholanib, muallifga "Xos Hojib" unvoni beriladi. Asarning shuhrati keng yoyilganligi bois, uni turli yurtlarda turlicha nom bilan atashgan: xitoyliklar "Adab ul-muluk", Sharqiy Turkiston ahli "Anis ul-mamolik", eronliklar "Shohnomai turkiy", sharq mamlakatlarida "Ziynat ul-umaro", ba'zi muhitlarda esa "Pandnomai muluk" deb yuritilishining o'ziyoq asarning yuksak maqomini ko'rsatadi.

Mutafakkirning mashhurligi bejiz emas. «Qutadg'u bilig»ning mundariyasi uning o'z zamonasining har jihatdan yetuk, intellektual salohiyati yuksak, ensiklopedik bilim egasi bo'lganini tasdiqlaydi. Unda tibbiyot, astronomiya, tarix, tabiiyotshunoslik, geografiya, matematika, mantiq, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya va fiqhga oid masalalar chuqur tahlil etilgan. Muallifning qamrovli tafakkuri uni haqiqiy qomusiy olim sifatida namoyon etadi. Shaxsiy ilmiy pozitsiyamga ko'ra, ushbu asar Sharq ma'naviy merosining eng puxta, eng barkamol namunalaridan biri bo'lib, undagi pedagogik qarashlar bugungi ta'lim fahm-faroqatini boyitishda ham metodik va nazariy jihatdan katta imkoniyatlarga egadir.

Hozirga qadar «Qutadg'u bilig»ning uchta mashhur qo'lyozma nusxasi - Hirot, Qohira va Namangan nusxalari ma'lum bo'lib, ulardan Hirot nusxasi Venada Herman Vamberi tomonidan ilk bor nashr etilgan. 1890-yilda V.V. Radlov Hirot nusxasining faksimilesini chop ettirib, 1891-yilda uning matnini nashr qildirdi. 1896-yilda Qohira nusxasining topilishi ilmiy izlanishlarga yangi bosqich olib keldi. Radlov har ikki qo'lyozmani qiyosiy tahlil qilib, 1910-yilda to'liq transkripsiya va nemis tiliga tarjimasini e'lon qildi. Nihoyat, 1913-yilda Namangan nusxasining aniqlanishi asarning yanada chuqurroq o'rganilishiga turtki bo'ldi.

Asarni ilmiy tadqiq etishda ko'plab sharqshunos va turkolog olimlar, jumladan, V.V. Radlov, H. Vamberi, S.E. Malov, S.N. Ivanov kabi mutaxassislar katta xizmat qilgan bo'lsalar, V.V. Bartold, Ye.E. Bertels, I.V. Stebleva, O.A. Valitova asarning turli qirralarini tahlil etish orqali uning ilmiy qiymatini yanada oshirdilar. O'zbekiston olimlari orasida esa asarni tadqiq etishda Fitratning xizmatlari alohida e'tiborga molik: u 1924-yilda Namangan nusxasini fanga tanishtirgan. Keyinchalik Q. Karimov, S.M. Mutalliboev, N.M. Mallaev kabi olimlar

asar ustida chuqur ilmiy tahlillar olib bordilar. Asarning zamonaviy o'zbek tilidagi bolalar uchun mo'ljallangan bayoni B. Tohliyev tomonidan tayyorlangan.

Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlari qoraqalpog'istonlik tadqiqotchi A.K.Axmetova tomonidan monografik tarzda o'rganilgan. Bu ham o'z navbatida asarning tarbiyaviy-falsafiy qimmatini naqadar yuksak ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. «Qutadg'u bilig» nafaqat siyosiy-axloqiy qo'llanma, balki o'ta teran pedagogik maktabdir. U zamonaviy ta'lim jarayonlarida ham shaxs tarbiyasining ma'naviy yo'nalishini to'g'ri belgilashda, pedagogik jarayonning mohiyatini anglashda, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda bebaho manba sifatida xizmat qiladi.

Mazkur asarda Qoraxoniylar davlatining siyosiy tizimini mustahkamlash, boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish, jamiyatning barcha qatlamiga xos xulq-atvor me'yorlarini belgilash, davlatning iqtisodiy va madaniy qudratini yanada mustahkamlashga oid ko'plab nazariy va amaliy fikrlar mujassamdir. Asarning bosh g'oyasi – davlat barqarorligi va jamiyat taraqqiyoti, avvalo, insonning ma'naviy yetukligiga tayanishi zarur, degan tamoyilga asoslanadi. Bu hol o'sha davrning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan uyg'un bo'lib, muallifning tarbiyashunos sifatidagi chuqur ma'rifiy qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Yusuf Xos Hojibning ushbu asarni yaratishda nafaqat donishmand mutafakkir, balki tarbiya nazariyotchisi va jamiyatshunos olim sifatida maydonga chiqishi, «Qutadg'u bilig»ni pedagogika tarixining yuksak cho'qqisiga ko'tarib qo'yadi. Asar didaktik ruhda yaratilgan bo'lib, unda komil insonni shakllantirish, uni jamiyatning faol, mas'uliyatli a'zosi etib tarbiyalashga oid ko'plab konseptual g'oyalar bayon etiladi.

Asarning tuzilishi ham Sharq pandnomalariga xos an'anaviy kompozitsiyani eslatadi: avval nasriy muqaddima, so'ngra esa 73 bobdan iborat asosiy mazmun bayon etiladi. Dastlabki bo'limda hamd, na't, asar yozilishining maqsadi, koinotning tuzilishi, tilning mohiyati, muallifning o'zini tanqid qilishi, ezgulikka da'vat kabi mavzular tahlil qilingan. Keyingi bo'limlarda esa ramziy qahramonlar o'rtasidagi munozara shaklida davlat boshqaruvi, adolat, aql, qanoat, insoniy fazilatlar, jamiyatda xizmat qilish, turmush odoblari kabi mavzular keng yoritiladi.

Asardagi to'rt ramziy qahramon – Kuntug'di (adolat), Oytoldi (davlat va saodat), O'gdulmish (aql), O'zg'urmish (qanoat) o'rtasidagi suhbatlar orqali muallif o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarini, ta'limiy-axloqiy qarashlarini, jamiyat taraqqiyotiga doir konsepsiyalarini bayon qiladi. Bu uslub asarning badiiy qimmatini yanada oshirib, uni nafaqat pedagogik, balki falsafiy va siyosiy pandnoma darajasiga ko'taradi.

Oytoldining Elig bilan suhbatida davlatning o'ziga xos xususiyatlari, uning beqaror tabiati, adolatning mohiyati va boshqaruvchilarning fazilatlarini batafsil

tahlil qilinadi. O'gdulmishning Elig bilan muloqotida esa saroy amaldorlari, ularning mas'uliyati, xizmat madaniyati, boshqaruv etikasiga oid fikrlar bayon etiladi. O'gdilmish va O'zg'urmishning munozaralari esa turmush odobi, insoniylik, kasb-hunar egalari haqida muallifning chuqur pedagogik qarashlarini aks ettiradi.

Q.Karimovning ta'kidlashicha, «Qutadg'u bilig» sof adabiy asar bo'lishi bilan birga, axloq, odob, ta'lim va tarbiya borasidagi mukammal qo'llanma sifatida ham qadrlidir. Asarning didaktik ruhi, undagi hayotiy hikmatlar uni haqiqiy ma'naviy-axloqiy ensiklopediyaga aylantiradi.

«Qutadg'u bilig» bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida ilgari surilayotgan g'oyalar – shaxs kamoloti, axloqiy barkamollik, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi tamoyillar bilan bevosita hamohangdir. Bu asar Sharq ma'naviyati, pedagogik tafakkur va davlat boshqaruvi madaniyatining eng yuksak namunalaridan biri sifatida hali uzoq yillar davomida o'z ilmiy-amaliy ahamiyatini saqlab qoladi.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari markazida insonning kamolotga erishish masalasi turadi. Asarda shaxsning jamiyatdagi maqomi, uning ijtimoiy vazifalari va burchi, shuningdek, barkamol inson tarbiyasiga daxldor masalalar o'ziga xos badiiy-falsafiy yo'sinda yoritilgan. Mutafakkir alloma an'anaviy kirish qismidan so'ngoqoq darhol insonning chinakam baxti ilmida ekani haqidagi g'oyani ilgari suradi. U bilim va zakovatning mohiyatini nafaqat nazariy jihatdan sharhlaydi, balki ularning amaliy hayotdagi o'rnini alohida urg'u bilan asoslaydi.

Yusuf Xos Hojib ilmni ulug'layar ekan, zakovatli inson ulug'likka, bilimli shaxs esa jamiyatda yuksak maqom egallashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ezgu ishlarning poydevori – ilm, insonni ma'naviy poklanish va yuksalishga eltuvchi asosiy omil sifatida ko'riladi. Mutafakkirning "Bilim hatto osmon sari yo'l ochadi" degan bashorati esa ilmning qudratini kuchli badiiy tashbeh orqali ifodalaydi.

Yusuf Xos Hojib ilmning mohiyati haqida so'z yuritar ekan, uni tengsiz gavhar, insonni yuksaltiruvchi bebaho boylik sifatida talqin qiladi. Uningcha, ilm insonni jaholatdan xalos etadigan ziyo bo'lib, bu boylikni hech kim tortib ololmaydi. Shu sababli u bilimni sadoqatli do'st, mehribon qarindosh va insonni qiynalishdan asrovchi qudrat sifatida sharhlaydi.

Biroq alloma ilm faqat o'rganish uchungina emas, balki uni hayotda qo'llay bilish uchun zarurligini alohida ta'kidlaydi. Amalda qo'llanmagan ilm dengiz tubidagi foydasiz marvariddir, degan tashbeh bilan u bilimning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Ilmni inson manfaatiga yo'naltirish, kashf etilgan bilimni jamiyat farovonligiga xizmat qildirish zarurligi ulkan tarbiyaviy g'oya sifatida ilgari suriladi.

Yusuf Xos Hojibning fikricha, farzand dunyoga kelgan ilk onlardan boshlab unga to'g'ri tarbiya berish, xulq-odob me'yorlarini o'rgatish, ilm va kasb-hunar sirlaridan boxabar qilish ota-ona zimmasidagi eng mas'uliyatli vazifalardandir. Buning uchun tarbiyachi sifatida pok fikrli, bilimdon, ma'naviy yetuk muallimni tanlash nihoyatda muhim. Farzandning kundalik hatti-harakatini kuzatib borish, uni to'g'ri yo'lga boshlash – ota-ona mas'uliyatining ajralmas qismi ekanini alloma bir necha bor alohida ta'kidlaydi.

Ayniqsa, Yusuf Xos Hojib tomonidan mansab egalari axloqiga bag'ishlangan o'gitlar bugungi davr uchun ham g'oyat dolzarbdir. U beklar, hojiblar, vazirlar, saroy boshqaruvchilari, elchilar, lashkarboshilar, devon rahbarlari, xazinadorlar, kotiblar kabi ko'plab davlat arboblarning nutq madaniyati, kasbiy saviyasi, xulq-odob darajasi, boshqaruv uslubi borasida juda aniq talablarni bayon qiladi. Uning fikricha, har bir rahbar o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lmog'i, ilm-fanni puxta egallagan, mulohaza yurita oladigan, so'z boyligi keng, fahm-farosatli, odil, saxovatli, tadbirkor, hushyor, qat'iyatli, jur'atli, jismonan sog'lom va ruhiy barqaror bo'lishi zarur. Alloma inson kamolotiga to'sqinlik qiladigan illatlar haqida so'z yuritarkan, eng avvalo davlat xizmatida faoliyat yurituvchi shaxslar bunday nuqsonlardan butkul yiroq turishi shartligini uqtiradi. U maishatparastlik, hashamatga ruju qo'yish, adovat, nizo, bo'hton, fisq-fasod, ma'naviy buzuvchilik, mayxo'rlik, nafsga berilish, manfaatparastlik, xudbinlik, odamlar haq-huquqlarini poymol etish, ta'magirlik, kibr-havo kabi illatlarni jamiyat taraqqiyotiga bevosita zarar yetkazuvchi omillar sifatida baholaydi. Ushbu salbiy xislatlar kuchaygani sari davlatning barqarorligi izdan chiqib, xalqning ma'naviy hayoti zaiflashib borishi muqarrarligini u o'ta keskin ohangda bayon etadi.

Yusuf Xos Hojib ilgari surgan bu g'oyalar bugungi davr axloqiy-pedagogik tizimi uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha, zamonaviy boshqaruv tizimi, ta'lim strategiyalari va ijtimoiy munosabatlar madaniyati aynan shu qadriyatlar asosida mustahkamlanishi zarur. Insoniylik, mas'uliyat, poklik va adolatning qadrlanishi jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti ekanligini ulug' mutafakkir g'oyalaridan ham ko'ramiz.

Yusuf Xos Hojib o'z asarlarida insoniy fazilatlarining eng yuksak mezonini hisoblanadigan **kamtarlik, hurmat va ehtirom** tamoyillarini alohida qadrlaydi hamda ularni kibr, o'ziga bino qo'yish, haddan tashqari mag'rurlanish kabi salbiy illatlarga qarama-qarshi qo'yadi. Mutafakkirning fikricha, amaldor bo'ladimi, oddiy xalq vakilimi – har bir inson xulq-odobda muloyimlik, shirinsuxanlik va ochiqko'ngillikni namuna sifatida namoyon etishi lozim. U haqiqiy boylikni mol-dunyo bilan emas, balki **ko'ngil to'qligi**, halollik va iymoniy poklik bilan o'lchaydi. Zero, ochko'zlik va tamagirlik insonning ma'naviy tubanlashuviga, poraxo'rlikning

ildiz otishiga sabab bo'lishini ta'kidlab, bu illatlardan qat'iy tiyilish zarurligini uqtiradi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy hayot va kundalik turmushning eng nozik jihatlariga ham katta e'tibor qaratadi. U avvalo, oila qurish jarayoni mas'uliyat bilan amalga oshirilishi, farzand tarbiyasi ongli ravishda tashkil etilishi kerakligini qayd etadi. Ota-onaning burchi farzandni ilmga, hunarga, odobga yo'naltirish, uning har bir harakatini oqilona kuzatib borishdan iborat ekani ta'kidlanadi. Muallif yigitlik davri qadri, keksalikni hurmat qilish, yoshlikni behuda sarflamaslik haqida chuqur falsafiy mulohazalar yuritadi.

Asarda insonning rasmiy uchrashuvlar, majlislar, marosimlar, ziyofatlar yoki xalq yig'inlarida o'zini tutish qoidalari batafsil yoritiladi. Mehmon va mezbonlik madaniyati, tartib-intizomga amal qilish, kishilar o'rtasida samimiy muomala olib borish kabi jihatlar bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmaganini ko'ramiz. Ayniqsa, «Qutadg'u bilig»da elchilar, davlat arboblari va saroy xizmatchilari oldida amal qilinishi lozim bo'lgan odob me'yorlari zamonaviy diplomatik etikaga hamohangdir.

Muallif asarni yozishda Sharq adabiyotida keng tarqalgan pand-nasihat maktabiga asoslangan bo'lsa-da, fikrlarni bayon etishda hayotiy misollar, kuzatuvlar va real tajribaga tayanishga alohida urg'u beradi. Ezgulik bilan yovuzlik, rostlik bilan yolg'on, saxiylik bilan baxillik, kamtarlik bilan kibrlilik kabi qarama-qarshi axloqiy tushunchalarning qiyosiy talqini asarning didaktik mohiyatini yanada kuchaytiradi. Bu uslub nafaqat o'quvchini o'ylashga undaydi, balki tarbiyaviy g'oyaning chuqur singishiga xizmat qiladi.

Yusuf Xos Hojib kishilar bilan munosabatda me'yorni saqlashni eng muhim prinsip sifatida ilgari suradi. Uning fikricha, haddan oshmagan, o'rtachalik tamoyiliga asoslangan munosabatlar insonni murosaga, totuvlikka, do'stlikning mustahkamligiga yetaklaydi.

Asarda jumboq va ramziy talqinlardan foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Bu usul hozirgi davr pedagogikasida «muammoli ta'lim» deb yuritiladi. Masalan, Kuntug'mish (Ezgulik timsoli) va Oytoldi (Davlat timsoli) o'rtasidagi munozara orqali muallif davlatning barqaror emasligi, baxtning hamisha bir joyda turmasligi, insonning har qanday mavqega ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi lozimligi haqida chuqur falsafiy xulosalar beradi. Davlatning ko'r kishi misolida tasvirlanishi esa hokimiyatning kimga yaqinlashsa, o'sha kishiga ta'sirchan tarzda bog'lanishi mumkinligiga ishora qiladi. Bu esa davlat va baxt ustidan haddan ortiq quvonmaslik, ortiqcha g'urur va isrofgarchilikdan yiroq bo'lish lozimligini ta'kidlaydi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, **Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari nafaqat o'z davrining tarbiyaviy-ma'naviy yo'l-yo'riqlarini mujassam**

etgan, balki bugungi pedagogika va axloqshunoslik uchun ham bebaho manba bo'lib qolmoqda. Asarda ilgari surilgan g'oyalar insonni har tomonlama kamolga yetkazish, jamiyatda adolat, ezgulik, axloqiy poklik va ilmga intilishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu asar o'zbek ma'naviy merosining yuksak namunalaridan biri bo'lib, bugungi yoshlar tarbiyasida, davlat boshqaruvida va ijtimoiy munosabatlarda qo'llanishi lozim bo'lgan universal qadriyatlarni mujassam etadi. Har bir rahbar va har bir oila a'zosi ushbu asardagi axloqiy mezonlardan kamida bittasini o'z hayotida qo'llasa, bu jamiyatning ma'naviy yangilanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. 2017.
2. R.Mavlonova, N.Voxidova, N.Raxmonkulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi 2010.
3. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. -"A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.
4. Axmedova M. E. Pedagogika nazariyasi va tarixi(O'quv qo'llanma) - T.:Tafakkur bo'stoni, 2011.
5. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. - Toshkent Nodirabegim". 2021.
6. To'xtaboyev N.Toshkenboyeva M. - *Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi*. - Toshkent: «O'qituvchi», 2020.